

"Iqtisodiy globalizatsiya sharoitida APK innovatsion taraqqiyot" deb nomlangan Sammit bo'lib o'tdi



Qozog'iston milliy Agrar tadqiqotlar universiteti tashkil etilganining 90 yilligiga bag'ishlangan V Xalqaro Agrotexnologik Sammit ZOOM dasturi orqali onlayn tarzda o'tkazildi. "Iqtisodiy globalizatsiya sharoitida APK innovatsion taraqqiyot" deb nomlangan ushbu Sammitda Qozog'iston Milliy fanlar akademiyasining vitse-prezidenti, akademik Yespolov Tilektes Isabayevich moderatorlik qildi. Sammitning ochiq umumiy yig'ilishida 70 taga yaqin vazirlar, professor va akademiklar o'z tabriklari bilan ishtirok etishdi. Ular orasida qator rivojlangan xorijiy davlatlarning sohaviy mutaxassisleri ham borligi Sammitning nufuzi yuqori ekanini bildiradi. O'zbekiston Oliy ta'lim kengashi raisi, GCHERA-Global qishloq xo'jaligi universitetlari va fanlari konsortsiumi ham raisi, Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti rektori, prof. Umurzakov O'ktam Pardayevichning o'z tabriklari bilan ishtiroki ayricha e'tiborga molik bo'ldi. Ular o'z tabriklarida mazkur mulohazalarini bildirib o'tdilar. "Universitetni rivojlantirishda alohida o'rinni turli yillarda ishlagan taniqli shaxslar va universitet rahbarlari egallaydilar. Ular haqli ravishda universitetning faxri. Men ushbu qiyin sharoitda shaxsan Siz va butun universitet professor-o'qituvchilari tomonidan KazNUU bitiruvchisining jamiyatdagi obro'sini ko'tarish, klassik ta'limning yuqori darajasini saqlab qolish uchun qancha ishlar qilayotganingizni bilaman. Ushbu quvonchli kunda men sizning rahbarligingiz ostida faoliyat yuritayotgan hozirgi universitet boshqaruvining alohida xizmatlarini ta'kidlamochiman. O'tgan 20 yil ichida, shubhasiz, universitet rivoji tarixidagi eng yaxshi davr hisoblanadi. Qozog'iston Respublikasi Milliy Fanlar Akademiyasi vitse-prezidenti, akademik, Al-Farabi nomidagi fan va texnika sohasidagi Qozog'iston Respublikasi Davlat mukofoti laureati Espolov Tilektes Isabaevich boshchiligida KazNAUning jadal rivojlanishi uchun kuchli asos yaratildi. Moddiy-texnika bazasi mustahkamlandi, fan, ta'lim va amaliyotni integratsiyalashuvining intensiv jarayoni olib borilmoqda, menejment tizimi joriy qilindi va ta'lim sifatini ta'minlashning o'ziga xos kontseptsiyasi ishlab chiqildi. Universitet uch darajali (bakalavr-magistr-doktor PhD) mutaxassislarni tayyorlashga o'tdi, kreditni o'qitish texnologiyasi joriy etildi. Qozog'iston Respublikasi va MDHning etakchi qishloq xo'jaligi universitetlari oliy va oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimiga tavsiya etilgan KazNAU misolida tadqiqot universitetining Qozog'iston modeli ishlab chiqildi. Akademik T.Espolov MDHning yetakchi agrar universitetlari rektorlari kengashining raisi, Janubiy Koreya, Xitoy, Vengriya, Rossiya, Litva, Ukraina, Belorusiya, Moldova, Ozarbayjon va boshqalarning 14 ta yetakchi qishloq xo'jaligi universitetlarining faxriy doktoridir. T.Espolov raxbarligi ostida universitet haqiqatan ham yangi hayot topdi. V Sammit global iqtisodiy muammolar yuzasidan mutaxassislarning ma'ruzalari bilan o'z faoliyatini davom ettirdi. Joriy yilning 3-4 dekabr kunlari o'tkazilgan ushbu tadbir sohaviy muammolarni hal etishda hamkorlik va innovatsion faoliyatni rivojlanishida katta mohiyat kasb etgani aniq.

TIQXMMI matbuot xizmati

